

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

QON TARKIBIDAGI KALIY MIQDORINING SUR QORAKO'L  
QO'YLARINING KO'PAYISH FIZIOLOGIYASI BILAN BOG'LIQLIGI

Ismoilov K. T.,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Aliyev D. D.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Annotatsiya.** Qorako'lchilik chorvachilikning rivojlanib borayotgan sohasidir. Ushbu maqolada sur qorako'l qo'ylar ozuqasi tarkibida K (kaliy) mikroelementlarini qo'shish orqali, ularning ko'payish, urug'lanish intensivligining har tomonlama ta'siri hamda qorako'l qo'ylarini urug'lantirish jadaligini oshirishda, qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako'l qo'ylari ko'payish fiziologiyasi bilan bog'liqliklarini aniqlashga doir tadqiqot natijalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** surqorako'l, kaliy, kuya kelish, urug'lanish, ko'payish, eyakulyatsiya, fiziologiya, rezistentlik, mahsuldorlik

**Kirish:** Qorako'lchilikni rivojlantirishda mikroelementlarning roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, organizm fiziologik jarayonlarini faollashishga olib keladi. Ular gormonlar, fermentlar, mikroelementlar va ba'zi vitaminlarning bir qismi bo'lgan yoki ularni faollashtiradigan biologik katalizatorlar sifatida ishlaydi. Mikroelementlar hayvonning o'sishiga, rivojlanishiga, mahsuldorligiga, uning ko'payish qobiliyatiga va chidamliligidagi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori biologik faollikka ega mikroelementlardan biri kaliydir. U ferment hosil bo'lish jarayonlarida ishtiroy etadi, tananing mudofaa reaksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi, yangi hujayralar shakllanishini tezlashtiradi, urug'lantirish va homilalik rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir qiladi va hayvonlarning o'sishini tezlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining "2017-yil 16-martdag'i PQ-2841-soni "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi va 2018-yil 3-martdag'i "Champoyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3693 sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqoladagi malumotlar ma'lum darajada xizmat qiladi.

Organizmda kaliy kationlari osmatik bosimni mo'tadillashtiradi, ishqor – kislota tengligini va moddalar almashinish, hazmlanish jarayonlarida faol ishtiroy etadi. Kaliyning o'ziga xos xususiyati shundaki, u radioktiv xususiyatga ega, yurak muskullarining faollilagini ta'minlaydi, yurak urish ritmini boshqaradi, ichki organlar qon tomirlarni kengaytiradi Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, hayvonlarning jinsiy faoliyat davrlarida qon tarkibidagi kaliy miqdorining sezilarli darajada o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako'l qo'ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog'liqlik belgilari kuzatiladi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

**Material va metodlar:** Tajriba Samarqand viloyati Nurobod tumani “Tutli qorako’l zamini” naslchilik xo‘jaligida urchitilayotgan sur rangli toza zotli qorako’l qo‘ylarida o‘tkazildi.

Har xil rangbarangli qorako’l qo‘ylariga biologik baho berish va qon tarkibidagi kaliy miqdori moddalar umumiy qobul qilingan usullarda aniqlandi. Olingan natijalar N.A. Ploxinskiy uslubi bo‘yicha biometrik tahlil qilindi. (N.A.Ploxinskiy, 1969)

Turli yoshdagi qo‘ylarning tirik vazn dinamikasi purjinali, platformali va elektron tarozilarda o‘lchash yordamida umum qabul qilingan formulalar orqali aniqlandi.

Tajribadagi qo‘ylarni etologik tiplarga ajratishda umumqabul qilingan uslublardan foydalanildi (Belyaev D.K., Martinova V.N., 1973).

**Natijalar va ularning tahlili:** Qon plazmasidagi kaliy miqdorining kamayishi natijasida yurak urish faoliyati buziladi, uglevodlardan foydalanish buziladi, oqsil sintezi susayadi. Uglevod almashinuvida kaliyning ahamiyati juda katta, bundan tashqari, shu narsa aniqlanganki, agarda kaliy bilan organizm to‘liq ta’milnmasa, oqsil molekulalarining RNK dan chiqishi qiyinlashadi. Organizmda kaliy miqdorining 2 miqdorda bo‘lishi aniqlanganligi sababli (yuqori va past darajada) ularning turli biologik ahamiyatlari aniqlangan; kaliy miqdori ko‘p bo‘lgan qo‘ylar suvni kam iste’mol qilishlari va issiqlikka chidamli bo‘lishi bilan kaliy miqdori kam bo‘lgan hayvonlardan farq qiladi.

Lebedov N.I. ma’lumotiga ko‘ra kaliy miqdori bilan qo‘ylar serpushtligi orasida uzviy korrelyatsion bog‘liqlik mavjud. Aripov U.X., Valiev R.G. larning ta’kidlashicha, turli zavod tipiga mansub qorako’l qo‘ylari, agarda ular turlicha iqlim sharoitlarida urchitilayotgan bo‘lsa, qon tarkibidagi kaliy miqdori bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Bu esa ularning tashqi muhit sharoitiga moslashishidan dalolat beradi.

### 1-jadval

#### Sur qorako’l qo‘chqorlar spermasi sifat ko‘rstakichlari

Kaliy miqdori	Qo‘chqorlar soni, bosh	Sperma sifati		
		Eykulyat hajmi, ml	Konsentratsiyasi, (1ml/ml)	Rezisentligi, (ming)
“minus” varianti	5	1,21	2,72	30,16
“o‘rtalik”	7	1,19	2,80	31,23
“plyus” varianti	4	1,22	2,83	29,01

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, qon tarkibidagi kaliy miqdori qorako’l qo‘chqorlari spermasi sifatiga ta’sir qilmaydi. Bir xil oziqlantirish sharoitida qondagi kaliyning turlicha bo‘lgan qo‘chqorlarning faqat vaginaga sakrash intensivligida bir oz farq borligi kuzatildi. Agarda kaliy miqdori ko‘p bo‘lgan qo‘chqorlarda vaginaga sakrash sutkasiga 3 marotaba bo‘lsa, “minus” varianti qo‘chqorlarda bu ko‘rsatkich 2 marotaba bo‘lishi kuzatildi.

Qonda kaliy miqdorini qorako’l qo‘ylarning kuyga kelish intensivligi ham bo‘gliq bo‘lib, bunda ularning ushbu xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillarini aniqlash muhim bo‘ladi. Qorako’l

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

qo‘ylarining qayta urchish xususiyatlarini biz tajribalarimizda ularning qochirish mavsumida kuya kelish intensivligiga qarab aniqladik. Jadvarda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, qon tarkibidagi kaly miqdori turlicha bo‘lgan hayvonlar o‘zlarining biologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha, ya’ni kuya kelish intensivligi bo‘yicha bir-biridan farq qilishadi.

### 2-jadval

#### Tajribadagi Sur qorako‘l sovliqlarning urug‘lanishi

Sovliqlar guruhlari	Urug‘lantirilgan sovliqlar, (bosh)	Sun’iy qochirishdan urug‘lantirildi, (bosh)	Urug‘langan sovliqlar, %
plyus variant	18	15	83,33
o‘rta variant	45	32	71,11
minus variant	16	11	68,75

Qoni tarkibida kaly miqdori ko‘p hayvonlar kuya ancha ertaroq kelishadi va ularni urug‘lantirish odatda bir jinsiy siklning o‘zidayoq yakunlanadi. Bunday holat, seleksionerlarga qochirish mavsumini boshqarish imkonini tug‘dirib, qon tarkibida kaly miqdori ko‘p hayvonlar qochirish mavsumini erta va qisqa muddatlarda tugatish imkonini beruvchi hayvon guruhlarini yaratish potensial manbai hisoblanadi. Bu yerda, qon tarkibida kaly miqdori turlicha bo‘lgan ona qo‘ylarning urug‘lanish darajalarini o‘rganish katta qiziqish uyg‘otadi. Tajribalar natijasi shuni ko‘rsatdiki, qon tarkibida kaly miqdori turlicha bo‘lgan sovliqlarning urug‘lanish ko‘rsatkichlari turlicha bo‘ldi. Ya’ni, plyus variantidagi sovliqlarning urug‘lanish darajasi o‘rta variantga nisbatan 12,2 % ga, minus variantidan esa 14,5 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

**Kaly miqdoriga qarab qorako‘l qo‘ylarini urug‘lanish intensivligi** ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, turli hayvonlarning jinsiy faollik davrlarida qon tarkibidagi kaly miqdorining sezilarli darajada o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi (yirik shoxli hayvonlarda) aniqlangan. Biz olib borgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaly miqdorining qorako‘l qo‘ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog‘liqlik darajasi o‘rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida yoshi va teri mahsulдорligi bo‘yicha bir xil bo‘lgan toza zotli qorako‘l qo‘ylari olindi. Qon tarkibidagi kaly miqdorini belgilovchi kriteriy sifatida hayvonlar uch alohida guruhlarga ajratildi: “minus” varianti - kaly miqdori 730 mkg/ml. gacha, “o‘rta” variant 730 mkg/ml.dan – 850 mkg/ml.gacha, + “plyus” varianti - kaly miqdori 850 mkg /ml dan ko‘p. Qo‘chqorlarning spermasi sifatini va miqdorini ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval malumotlaridan ko‘rinib turibdiki qon tarkibidagi biologik ko‘rsatkichlardan kaly miqdori har xil miqdordagi qo‘ylardan kuya kelish intensivligi ahamiyatli farq qiladi. Kaly miqdori ko‘p qo‘ylar ertaroq kuya kelishi va ularni urug‘lantirish deyarli bir jinsiy siklda amalgalashadi. Bunday holatlar seleksionerlar o‘rtasida qochirim mavsumini yuqori darajada o‘tkazishga imkon beradi. Kaly miqdori yuqori darajada bo‘lgan qorako‘l qo‘ylari qochirish mavsumi qisqa muddatlarda amalgalashadi.

### 3-jadval

#### Qon tarkibida kaly miqdori turlicha bo‘lgan sur qorako‘l qo‘ylarning kuya kelish jadalligi

Guruqlar	<i>p</i>	Kuya kelish muddati									
		10/X 15/X		-		16/X - 20/X		21/X - 25/X		26/X - 31/X	
		<i>p</i>	%	<i>p</i>	%	<i>p</i>	%	<i>p</i>	%	<i>p</i>	%
Plyus variant	18	6	42,8	7	50,0	1	7,2	-	-	-	-
o‘rtal variant	45	9	20,5	11	25,0	13	29,5	11	25,0	-	-
minus variant	16	2	16,7	3	25,0	3	25,0	3	25,0	1	8,3

**Xulosa:** Xulosa qilinganda mahsuldor qo‘ylar suruvlarini yaratishda organizmdagi kaly miqdori ko‘p hayvonlarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qon tarkibidagi kaly miqdori ko‘p qo‘chqorlarni tanlash suniy urug‘lantirish samaradorligini oshirish hamda sovliqlarning erta kuya kelishi va bir jinsiy siklning o‘zidayoq yakunlanishi seleksionerlarga qochirish mavsumini erta va qisqa muddatlarda tugatish imkonini beruvchi hayvonlar guruhlari tuzish imkoniyatlari yaratiladi.

Qon tarkibidagi kaly miqdorining qorako‘l qo‘ylari mahsuldorligiga hamda ko‘payish fiziologiyasiga tasirlari bo‘yicha naslli qo‘chqorlar spermasi rezistentligi bo‘yicha kaly miqdori ko‘p qo‘ylarda o‘rtacha 30,16 mingtani tashkil qilsa kaly miqdori kam qo‘ylarda 29,01 mingni tashkil qildi. Suniy urug‘lantirishda qo‘chqorlarni vaginalarga sakrash faolligi yuqori darajada. Sovliqlarda esa bir siklning o‘zida otalanish koeffitsientlari aniqlandi.

Shuni ham aytish mumkinki qon tarkibidagi kaly miqdori ma’lum darajada qorako‘l qo‘ylarining qayta urchish funksiyalariga ta’sir o‘tkazadi.

Qo‘ylarning oziqlantirishda ozuqasiga qo‘srimcha ravishda Kaliy yodid qo’shib berilsa, oziqlantirilgan tajriba guruhidagi hayvonlarda ko‘payish va urug‘lanish jadaligining ortishi kuykish intensivligining yuqori ko‘rsatkichlarga erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Балакин, Ю. А., Гладков, М. И., Юнусов, Х. Б., & Захаров, С. Л. (2015). Математическое моделирование влияния вибрации на рафинирование расплавов металлов. Географическая среда и живые системы, (4), 51-58.
- Ярмолович, В. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Даминов, А. С., Дилмуровдов, Н. Б., & Кулиев, Б. А. (2020). Морфофункциональная характеристика вымени у коров различной продуктивности.
- Балакин, Ю. А., Юнусов, Х. Б., Будник, А. А., Соколов, И. В., & Хаулин, А. Н. (2016). Влияние внешнего воздействия на межфазное взаимодействие при кристаллизации

металлов. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Естественные науки, (2), 78-86.

4. Солтанов, С. Х., Кривошея, И. В., Позднякова, Д. В., & Юнусов, Х. Б. (2014). Негативные экологические последствия эмиссий авиадвигателей воздушных судов гражданской авиации московского авиационного узла. UNTRADITIONAL NATURAL RESOURCES, INNOVATION TECHNOLOGIES AND PRODUCTS, 137.
5. Юнусов, Х. Б., Дроганова, Т. С., Поликарпова, Л. В., & Лялина, И. Ю. (2016). Влияние загрязнения водной среды на изменения ферментативной активности пресноводного моллюска живородка речная. АгроЭкоИнфо, (4 (26)), 6.
6. Кононенко, Л. В., Самбурова, Е. В., & Юнусов, Х. Б. (2018). Метапредметность: опыт, реализуемый в жизни. Химия в школе, (5), 50-54.
7. Раткевич, Е. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2012). Основы экологического образования. М.: Экомир.
8. Юнусов, Х. Б. (2013). Дисциплина «Экология» для направления подготовки «Педагогическое образование», профили подготовки «Технологическое и экономическое образование», «Технологическое образование». М.: МГОУ.
9. ЮНУСОВА, Т., Лётова, К. К., & ЮНУСОВ, Х. (2015). Экологические проблемы окружающей среды и правовые основы работы с экологически опасными веществами и отходами. In Проблемы экологии Московской области (pp. 72-74).
10. Кривошея, И. В., Солтанов, С. Х., Лялина, И. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2015). Применение фиторемедиации как одного из эффективных и перспективных методов очистки почв от тяжелых металлов на территориях, прилегающих к аэродромам и автозаправочным станциям. Министерство экологии и природопользования Московской области, 84.
11. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
12. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
13. Юнусов, Х. Б., Салимов, Ю., & Нуруллаев, А. А. (2021). Техноген омилларни маҳсулдор ҳайвонлар организмига ўзига хос таъсиirlари. Вестник Ветеринарии и Животноводства, 1(1).
14. Джаббаров, Ш. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Нормурадова, З. Ф. (2021). Современное состояние гельминтофауны кошек.

15. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Бутаева, И. М. (2021). Международные отношения в области образования между Самаркандским институтом ветеринарной медицины и Витебской государственной академией ветеринарной медицины.
16. Усиков, М. А., & Юнусов, Х. Б. (2021). СНИЖЕНИЕ ГАРМОНИЧЕСКИХ ИСКАЖЕНИЙ В ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СЕТИ ПРИ ПИТАНИИ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЧАСТОТЫ ЭЛЕКТРОПРИВОДОВ БУРОВЫХ УСТАНОВОК. In Международная научно-практическая конференция «Уральская горная школа-регионам» (pp. 161-162).
17. Soltanov, S. K., Yunusov, K. B., Yuldashbayev, Y. A., Zolotarev, S. V., & Baimukanov, D. A. (2020). MODERN GEOCHEMICAL STATE OF THE ENVIRONMENT OF THE ADJACENT TERRITORIES OF THE DOMODEDOVO MOSCOW AIRPORT. OF GEOLOGY AND TECHNICAL SCIENCES, 31.
18. Голыбин, Ю. А., & Юнусов, Х. Б. (2020). ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ ПРИ АВТОМАТИЗАЦИИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ. In Уральская горная школа-регионам (pp. 196-197).
19. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). Inspection of meat products and improvement of control at the slaughterhouse. Journal of new century innovations, 17(4), 155-162.
20. Юнусов, Х. Б. (2020). Патоморфологическая характеристика мочевыводящих путей у продуктивных животных. In ВОПРОСЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ ГИСТОЛОГИИ (pp. 167-170).
21. Кучинский, М. П., Юнусов, Х. Б., Джаббаров, Ш. А., Салимов, Ю., & Федотов, Д. Н. (2020). Токсикологическая оценка полиионного дезинтоксикационного препарата для животных. In Состояние разработки и производства биологических и ветеринарных препаратов и возможности расширения их локализации (pp. 63-65).
22. Юнусов, Х. Б., Захаров, С. Л., Зверев, О. М., Солтанов, С. Х., & Кривошея, И. В. (2015). УЛУЧШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СТОЧНЫХ ВОД НА ТЕКСТИЛЬНОМ ПРЕДПРИЯТИИ. In Нетрадиционные природные ресурсы, инновационные технологии и продукты (pp. 13-17).
23. Boysinova, N., Ibragimov, F., Yunusov, K., Achilov, O., & Rasulov, U. (2024). The effectiveness of using probiotics, their effect on growth and chemical composition of broiler chicken meat. In BIO Web of Conferences (Vol. 95, p. 01013). EDP Sciences.
24. Юнусов Х. Б., Ачилов О. Э., Султонқұлов А. И. ЭХИНOKOKKoZ БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ҚҮЙ ГҮШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ САНИТАРИЯ ЖИХАТДАН БАҲОЛАШ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 3-14.

25. Юнусов, Х. Б., & Турдиев, А. К. (2022). РЕСПУБЛИКАДА ҚҮЁНЧИЛИК РИВОЖЛАНИШИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 714-719.
26. Захаров, С. Л., and Харис Бариевич Юнусов. "Бароэлектрохимические процессы и аппараты на мембранах различной пористости." (2009).
27. Жуков, А. И., Юнусов, Х. Б., Джаббаров, Ш. А., Федотов, Д. Н., Даминов, А. С., & Кучинский, М. П. (2020). Морфологическое проявление патологических процессов в органах животных.
28. Zakharov, S. L., Yunusov, K. B., & Levin, S. N. (2016). Material for protection of oil products against evaporation. Chemical and Petroleum Engineering, 52, 69-70.
29. Беляева, А. В., Юнусов, Х. Б., & Лялина, И. Ю. (2016). Распространенность кариеса у студентов и его профилактика. In Актуальные проблемы биологической и химической экологии (pp. 192-196).
30. Юнусов, Х. Б., & Лялина, И. Ю. (2016). Современные риски и особенности экологической и биологической безопасности. In Актуальные проблемы биологической и химической экологии (pp. 315-322).